Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 378.147:004:37.015.3
ORCID: 0009-0009-3313-7402

JUMAYEV YUSUFBEK O'KTAM O'G'LI
Termiz davlat pedagogika instituti Ma'lumotlar bazasi bo'limi menejeri E-mail: yusuf@terdpi.uz
Tel.: +99899-577-72-78
NAZAROVA ZARRINA ALLABERDIYEVNA
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: nazarovazarrina@terdpi.uz
Tel.: +99897-551-49-11

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OLIY TA'LIM TALABALARIDA SELF-MANAGEMENT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

ANNOTATSIYA: Maqolada oliy ta'lim sharoitida talabalarning self-management kompetensiyasini rivojlantirish masalasi raqamli o'zini boshqarish muhiti bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Muallif self-management kompetensiyasini talabaning shaxsiy o'quv maqsadini belgilashi, vaqt va resurslarni boshqarishi, mustaqil ta'lim jarayonini rejalashtirishi, raqamli vositalar yordamida o'z faoliyatini kuzatishi hamda natijalar asosida keyingi harakatlarini tuzatishi bilan bog'liq integrativ kompetensiya sifatida izohlaydi. Maqolada oliy ta'limda raqamli vositalar mavjud bo'lishining o'zi talabaning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini avtomatik rivojlantirmasligi, buning uchun maqsadli pedagogik muhit, bosqichli topshiriqlar, raqamli rejalashtirish, elektron monitoring, o'z-o'zini baholash va refleksiv tahlil tizimi zarurligi asoslanadi. Shuningdek, talabalarda self-management kompetensiyasini rivojlantirish uchun "maqsad – reja – faoliyat – monitoring – refleksiya – tuzatish" sikliga asoslangan pedagogik yondashuv taklif etiladi.

KALIT SO'ZLAR: *oliy ta'lim, raqamli muhit, self-management, raqamli o'zini boshqarish, mustaqil ta'lim, elektron monitoring, refleksiya, o'z-o'zini baholash, vaqtni boshqarish, pedagogik texnologiya.*

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ SELF-MANAGEMENT У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ СОЗДАНИЕ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ САМОУПРАВЛЕНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

АННОТАЦИЯ: В статье рассматривается проблема развития компетенции self-management у студентов высших образовательных учреждений в контексте создания цифровой среды самоуправления. Компетенция self-management трактуется как интегративная способность студента определять личные учебные цели, управлять временем и ресурсами, планировать процесс самостоятельного обучения, отслеживать собственную деятельность с помощью цифровых инструментов и корректировать дальнейшие действия на основе полученных результатов. В статье обосновывается, что само наличие цифровых средств в высшем образовании не обеспечивает автоматического развития способности студентов к самоуправлению. Для этого необходимы целенаправленная педагогическая среда, поэтапные задания, цифровое планирование, электронный мониторинг, самооценка и рефлексивный анализ. Предлагается педагогический подход, основанный на цикле "цель – план – деятельность – мониторинг – рефлексия – коррекция ".

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *высшее образование, цифровая среда, self-management, цифровое самоуправление, самостоятельное обучение, электронный мониторинг, рефлексия, самооценка, тайм-менеджмент, педагогическая технология.*

DEVELOPING STUDENTS' SELF-MANAGEMENT COMPETENCE THROUGH A DIGITAL SELF-GOVERNANCE ENVIRONMENT IN HIGHER EDUCATION

ABSTRACT. The article examines the development of students' self-management competence in higher education through the creation of a digital self-governance environment. Self-management competence is interpreted as an integrative ability of students to define personal learning goals, manage time and resources, plan independent learning, track their own activity through digital tools, and adjust further actions based on learning outcomes. The article argues that the mere availability of digital tools in higher education does not automatically develop students' self-management skills. This process requires a purposeful pedagogical environment, staged assignments, digital planning, electronic monitoring, self-assessment, and reflective analysis. A pedagogical approach based on the cycle "goal – plan – activity – monitoring – reflection – correction" is proposed.

KEY WORDS: *higher education, digital environment, self-management, digital self-governance, independent learning, electronic monitoring, reflection, self-assessment, time management, pedagogical technology.*

KIRISH. Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lami kengaygani sari talabaning o'quv jarayonidagi roli ham o'zgarib bormoqda. Avval ta'lim jarayonida asosiy nazorat o'qituvchi tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi raqamli muhitda talaba o'z o'quv faoliyati uchun ko'proq shaxsiy mas'uliyatni zimmasiga olishi kerak. Elektron platformalar, masofaviy ta'lim elementlari, onlayn topshiriqlar, raqamli baholash vositalari va mustaqil ta'lim resurslari talabaga keng imkoniyat beradi. Ammo bu imkoniyatlardan samarali foydalanish talabaning o'zini boshqarish qobiliyatiga bevosita bog'liq.

Raqamli muhitda o'qish an'anaviy ta'limga nisbatan ko'proq mustaqillikni talab qiladi. Talaba topshiriq muddatlarini kuzatishi, elektron resurslarni tanlashi, vaqtini taqsimlashi, o'qituvchi bilan onlayn muloqot qilishi, natijalarini qayd etishi va o'z faoliyatini muntazam tahlil qilishi zarur. Agar talaba bu jarayonlarni ongli boshqara olmasa, raqamli ta'lim vositalari ta'lim sifatini oshirish o'rniga tartibsizlik, kechikish, yuzaki bajarilgan topshiriqlar va o'quv motivatsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli oliy ta'limda self-management kompetensiyasini rivojlantirish masalasi faqat psixologik yoki shaxsiy rivojlanish muammosi emas, balki bevosita pedagogik muammo sifatida qaralishi kerak. Self-management kompetensiyasi talabaning o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, vaqtni boshqarish, maqsadga yo'naltirilgan harakat qilish, raqamli vositalardan maqsadli foydalanish, o'z natijalarini baholash va keyingi faoliyatini tuzatish qobiliyatlarida namoyon bo'ladi.

Bugungi oliy ta'limda talaba mustaqil ta'lim topshiriqlarining katta qismini auditoriyadan tashqarida bajaradi. Shu jarayonda u o'qituvchining bevosita nazoratisiz ishlaydi. Demak, talabaning o'z faoliyatini tartibga solish, muddatga rioya qilish, kerakli manbani tanlash, chalg'ituvchi omillarni kamaytirish va o'z natijasini tanqidiy baholash ko'nikmalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning asosiy maqsadi oliy ta'limda raqamli o'zini boshqarish muhitini yaratish orqali talabalarning self-management kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini asoslashdan iborat. Bunda asosiy e'tibor raqamli vositalarning o'ziga emas, balki ular yordamida talabaning shaxsiy o'quv faoliyatini ongli boshqarish mexanizmini shakllantirishga qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Self-management kompetensiyasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda self-regulated learning, self-directed learning, learner autonomy, metacognitive regulation va time management tushunchalari bilan yaqin aloqada o'rganiladi. Bu tushunchalarning barchasida umumiy jihat mavjud: ta'lim oluvchi o'z faoliyatining faqat ijrochisi emas, balki uni rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va baholovchi faol subyekt sifatida qaraladi.

B.Zimmerman tomonidan ilgari surilgan self-regulated learning yondashuvida ta'lim oluvchining maqsad qo'yishi, harakat strategiyasini tanlashi, bajarish jarayonini kuzatishi va natijani tahlil qilishi muhim bosqichlar sifatida talqin etiladi. Mazkur nazariya talabaning o'quv faoliyatini ichki boshqaruv mexanizmlari orqali tushuntirish imkonini beradi.

P.Pintrich tadqiqotlarida o'z-o'zini boshqaruvchi ta'lim motivatsion, kognitiv va xulqiy jarayonlar bilan bog'liq holda izohlanadi. Bu yondashuv talabaning o'quv faoliyatida faqat bilim emas, balki motiv, maqsad, strategiya, monitoring va baholash birgalikda amal qilishini ko'rsatadi. Aynan shu jihatlar self-management kompetensiyasining tarkibiy asoslarini belgilaydi.

M.Knowlesning self-directed learning konsepsiyasi katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning o'z ehtiyojini anglash, o'quv maqsadini belgilash, zarur resurslarni tanlash va o'z natijalarini baholash qobiliyatini asoslaydi. Oliy ta'lim talabalari ham ma'lum darajada mustaqil ta'lim subyekti sifatida qaraladi. Shu sababli self-directed learning g'oyalari self-management kompetensiyasini rivojlantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli kompetensiya bo'yicha tadqiqotlarda raqamli vositalardan foydalanish oddiy texnik ko'nikma emasligi ta'kidlanadi. Raqamli kompetensiya axborotni izlash, tanlash, baholash, xavfsiz foydalanish, raqamli muloqotda ishtirok etish, elektron resurslar orqali bilim olish va o'z faoliyatini raqamli vositalar yordamida tashkil etish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Demak, raqamli kompetensiya self-management kompetensiyasining muhim amaliy tayanchi bo'lishi mumkin.

Rus pedagogika maktabida o'z-o'zini tashkil etish, mustaqil ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv masalalari ko'plab ilmiy ishlar doirasida o'rganilgan. Ushbu yondashuvlarda talabaning faolligi, mustaqilligi, o'z faoliyatiga mas'uliyati va o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorligi ta'lim natijadorligini belgilovchi omillar sifatida qaraladi.

O'zbek pedagogika fanida pedagogik texnologiya, mustaqil ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish masalalari alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Bu tadqiqotlarda talabalarning mustaqil ishlashini tashkil etish, o'qituvchi va talaba hamkorligini kuchaytirish, o'quv jarayonini texnologiyalashtirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish masalalari muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, self-management kompetensiyasini rivojlantirish masalasi alohida-alohida yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lsa-da,

uni raqamli o'zini boshqarish muhiti bilan bog'lab tahlil qilish hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu bois oliy ta'limda talabaning o'z o'quv faoliyatini raqamli vositalar yordamida ongli boshqarishiga qaratilgan pedagogik yondashuvni ishlab chiqish zarur.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Oliy ta'limda raqamli o'zini boshqarish muhiti deganda talabaning o'quv maqsadi, shaxsiy rejasi, mustaqil ta'lim topshiriqlari, elektron resurslari, monitoring vositalari va refleksiv baholash jarayonlari o'zaro bog'langan pedagogik tizim tushuniladi. Bunday muhitda raqamli vositalar faqat ma'lumot olish yoki topshiriq topshirish uchun emas, balki talabaning o'z faoliyatini boshqarishiga xizmat qiladi. Self-management kompetensiyasini rivojlantirishda birinchi navbatda talabaning o'quv maqsadi aniq bo'lishi kerak. Maqsadsiz mustaqil ta'lim ko'pincha tasodifiy bajarilgan topshiriqlar yig'indisiga aylanadi. Shu sababli talaba har bir fan yoki o'quv moduli bo'yicha "men nimani o'rganishim kerak?", "bu bilim menga nima uchun zarur?", "qaysi natijaga erishishim kerak?" kabi savollarga javob topishi kerak. O'qituvchi esa ushbu jarayonda talabaning maqsadlarini aniq va o'lchanadigan shaklga keltirishga yordam beradi.

Ikkinchi muhim jihat – rejalashtirishdir. Raqamli ta'lim muhitida topshiriqlar ko'p hollarda elektron platformalarda beriladi. Talaba bir vaqtning o'zida bir nechta fan bo'yicha mustaqil topshiriq, loyiha, test, taqdimot yoki yozma ish bajarishi mumkin. Agar bular yagona shaxsiy reja asosida tartibga solinmasa, talaba muddatlarni unutishi yoki topshiriqlarni oxirgi kunga qoldirishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Shuning uchun haftalik reja, elektron kalendar, topshiriqlar ro'yxati va ustuvorlik jadvali self-management kompetensiyasini rivojlantirishning muhim vositalaridir.

Uchinchi jihat – faoliyatni bajarish bosqichidir. Bu bosqichda talaba rejalashtirilgan topshiriqlarni bajaradi, kerakli manbalarni tanlaydi, elektron resurslar bilan ishlaydi va o'z vaqtini belgilangan rejaga muvofiq taqsimlaydi. Raqamli muhitda talabaning diqqatini chalg'ituvchi omillar ko'p bo'ladi. Shu bois self-management kompetensiyasi faqat reja tuzish emas, balki rejaga rioya qilish, diqqatni jamlash va o'z harakatlarini nazorat qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

To'rtinchi jihat – monitoringdir. Monitoring talabaning o'z faoliyatini kuzatib borishi va o'qituvchi tomonidan pedagogik qo'llab-quvvatlanishini anglatadi. Bu jarayonda elektron platformadagi topshiriqlar bajarilishi, muddatlarga rioya qilinishi, mustaqil ishlar sifati, elektron portfolio holati va talabaning o'z-o'zini baholash natijalari tahlil qilinadi. Monitoring jazolash vositasi emas, balki rivojlanishni ko'rsatib beradigan pedagogik mexanizm sifatida ishlatilishi kerak.

Beshinchi jihat – refleksiya. Refleksiya orqali talaba o'z faoliyatiga baho beradi. U qaysi topshiriqni muvaffaqiyatli bajarganini, qaysi joyda qiynalganini, nima uchun kechikkanini, qaysi raqamli vosita foydali bo'lganini va keyingi safar nimani o'zgartirish kerakligini aniqlaydi. Refleksiyasiz self-management kompetensiyasi yuzaki bo'lib qoladi, chunki talaba o'z tajribasidan xulosa chiqarmaydi.

Oltinchi jihat – tuzatish va takomillashtirish. Talaba monitoring va refleksiya natijalaridan kelib chiqib, keyingi o'quv faoliyatini o'zgartiradi. Masalan, u topshiriqlarni kichik bosqichlarga bo'lishi, elektron eslatmalardan foydalanishi, kunlik reja tuzishi yoki ma'lum vaqtda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni cheklashi mumkin. Bu bosqich self-management kompetensiyasini doimiy rivojlanish jarayoniga aylantiradi.

Mazkur jarayonni "maqsad – reja – faoliyat – monitoring – refleksiya – tuzatish" sikli sifatida ifodalash mumkin. Bu siklning afzalligi shundaki, u talabaning o'quv faoliyatini bir martalik topshiriq emas, balki muntazam boshqariladigan jarayon sifatida tashkil etadi. Har bir sikl yakunida talaba o'z tajribasidan xulosa chiqaradi va keyingi bosqichda nisbatan samaraliroq ishlashga harakat qiladi.

Oliy ta'limda bunday siklni joriy etish uchun o'qituvchi topshiriqlarni faqat mazmun bo'yicha emas, balki boshqaruv nuqtayi nazaridan ham loyihalashi kerak. Masalan, mustaqil ish topshirig'ida faqat "referat yozing" deyish yetarli emas. Unda mavzu tanlash muddati, manbalarni saralash, reja tuzish, dastlabki qoralama, yakuniy tahrir va o'z-o'zini baholash bosqichlari aniq ko'rsatilsa, talaba o'z faoliyatini yaxshiroq boshqaradi.

Raqamli o'zini boshqarish muhitida elektron portfolio muhim vosita hisoblanadi. Elektron portfolio talabaning o'quv ishlari, mustaqil topshiriqlari, ijodiy ishlari, loyihalari, sertifikatlari, refleksiv yozuvlari va rivojlanish natijalarini jamlaydi. U talabaning faqat yakuniy natijasini emas, balki rivojlanish dinamikasini ham ko'rsatadi. Shu sababli elektron portfolio self-management kompetensiyasining amaliy ko'rsatkichi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Self-assessment, ya'ni o'z-o'zini baholash ham mazkur jarayonda muhim o'rin tutadi. Talaba o'z topshirig'ini baholash mezonlari asosida ko'rib chiqsa, u faqat baho olishga emas, balki o'z ishining sifatini tushunishga harakat qiladi. O'z-o'zini baholash varaqalari talabaning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalarda self-management kompetensiyasini rivojlantirishda o'qituvchining roli ham yangicha mazmun kasb etadi. O'qituvchi faqat bilim beruvchi yoki nazorat qiluvchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahatchi va

rivojlanishni kuzatuvchi pedagog sifatida harakat qilishi lozim. U talabaga topshiriqni qanday rejalashtirish, qaysi resursdan foydalanish, natijani qanday baholash va kamchiliklarni qanday tuzatish bo'yicha metodik yordam beradi.

Raqamli o'zini boshqarish muhitida individual yondashuv ham muhimdir. Har bir talabaning vaqtni boshqarish tajribasi, raqamli savodxonligi, mustaqil ishlash darajasi va motivatsiyasi bir xil emas. Shuning uchun barcha talabalar uchun yagona topshiriq berish bilan cheklanib qolmasdan, ularning tayyorgarlik darajasiga mos qo'shimcha yo'naltirish, maslahat va nazorat nuqtalarini belgilash maqsadga muvofiq.

Muhokama natijalaridan ko'rinadiki, self-management kompetensiyasini rivojlantirish uchun raqamli vositalarni ta'lim jarayoniga kiritishning o'zi yetarli emas. Asosiy masala – bu vositalarni pedagogik maqsadga bo'ysundirishdir. Raqamli kalendar rejalashtirishga, elektron portfolio o'sish dinamikasini ko'rsatishga, LMS monitoringga, self-assessment refleksiyaga, bulutli hujjatlar esa mustaqil ishlash va hamkorlikka xizmat qilgan taqdirdagina ular self-management kompetensiyasini rivojlantiruvchi vositaga aylanadi.

XULOSA. Oliy ta'limda raqamli o'zini boshqarish muhitini yaratish talabalarning self-management kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Raqamli ta'lim vositalari talaba uchun keng imkoniyat yaratadi, biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish talabaning o'z faoliyatini ongli boshqarish darajasiga bog'liq.

Self-management kompetensiyasi talabaning o'quv maqsadini belgilashi, vaqtni boshqarishi, mustaqil ta'limni rejalashtirishi, raqamli vositalardan maqsadli foydalanishi, natijalarini monitoring qilishi, refleksiv baholashi va keyingi faoliyatini tuzatishi bilan bog'liq integrativ kompetensiyadir. Ushbu kompetensiya ayniqsa kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim hajmining ortishi va elektron platformalar keng qo'llanilayotgan sharoitda zarur hisoblanadi.

Maqolada taklif etilgan "maqsad – reja – faoliyat – monitoring – refleksiya – tuzatish" sikli talabaning o'quv faoliyatini tartibli, bosqichli va ongli boshqariladigan jarayonga aylantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv orqali raqamli vositalar oddiy texnik yordamchi emas, balki talabaning shaxsiy o'quv faoliyatini boshqaruvchi pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, oliy ta'limda self-management kompetensiyasini rivojlantirish uchun raqamli muhit, metodik topshiriqlar, elektron monitoring, self-assessment, refleksiv tahlil va individual ta'lim trayektoriyasi o'zaro uyg'unlashtirilishi zarur. Bu yondashuv talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish, o'z faoliyatiga mas'uliyatini kuchaytirish va zamonaviy raqamli ta'lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman and Company, 1997. URL:https://books.google.com/books/about/Self_Efficacy.html?id=eJ-PN9g_o-EC

2.Garrison D.R. Self-directed learning: Toward a comprehensive model // Adult Education Quarterly. – 1997. – Vol. 48(1). – P. 18–33. URL: https://doi.org/10.1177/074171369704800103

3.Knowles M.S. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. – New York: Association Press, 1975. URL: https://eric.ed.gov/?id=ED114653

4.Pintrich P.R. The role of goal orientation in self-regulated learning // Handbook of Self-Regulation. – San Diego: Academic Press, 2000. – P. 451–502. URL: https://doi.org/10.1016/B978-012109890-2/50043-3

5.Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. –Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. URL: https://op.europa.eu/en/publication-detail/-/publication/fcc33b68-d581-11e7-a5b9-01aa75ed71a1/language-en

6.Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005. – Vol. 2(1). – P. 3–10. URL: https://www.itdl.org/Journal/Jan_05/article01.htm

7.Zimmerman B.J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. – 2002. – Vol. 41(2). – P. 64–70. URL: https://doi.org/10.1207/s15430421tip4102_2

8.Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – №5. – С. 34–42. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/klyuchevye-kompetentsii-novaya-paradigma-rezultata-obrazovaniya

9.Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64. URL: https://narodnoe.org/journals/narodnoe-obrazovanie/2003-2/klyuchevie-kompetencii-kak-komponent--lichnostno-orientirovannoiy-paradigmi-obrazovaniya

10.Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik vakreativlik asoslari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. URL: https://portal.guldu.uz/?act=resources&id=20004

11.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000. URL:https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/pedagogika/Oliy%20maktab%20pedagogikasi%20%28M.O chilov%2C%20N.Ochilova%29.pdf

12.Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. URL: https://wapik.su/view/pedagogik-texnologiyalarning-tatbiqiy-asoslari-otolipov-musmonboyev-10936

13.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.

14.Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. URL: https://lib.afu.uz/index.php?newsid=214

15. Polat E.S. Noviye pedagogicheskiye i informatsionniye texnologii v sisteme obrazovaniya. – Moskva: Akademiya, 2008. URL: https://prepod.nspu.ru/mod/resource/view.php?id=43073.